

NAVRO'Z - EZGULIK NASHIDASI



NAVRO'Z - EZGULIK NASHIDASI

So'x tumani Qal'a mahallasida joylashgan 6-sonli davlat maktabgacha ta'lim tashkilotida "Navroz - ezgulik nashidasi" deb nomlangan ma'naviy-ma'rifiy tadbir bo'lib o'tdi. Unda maktabgacha ta'lim bo'limi vakillari, bo'lim xodimlari va tarbiyachilari hamda mahalla nuroniylari, ota-onalar ishtirok etishdi.

Bayram tadbirida maktabgacha ta'lim tashkiloti xodimlari tomonidan milliy an'analarimiz va urf-odatlarimiz nishonasi bo'lmish bahoriy taom - sumalak tayyorlanib, tadbir ishtirokchilariga ulashildi. Bolajonlarimiz tomonidan ijro etilgan qo'shiqlar va raqslar tadbir ishtirokchilariga ko'tarinki kayfiyat baxsh etdi.

So'x tumani hokimligi Axborot xizmati

2022-03-19 16:58:18